



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

PhD, dots. **Ruzmetov Davron**

Urganch RANCH texnologiya universiteti

ORCID: 0009-0002-2301-8636

d.ruzmetov@utu-ranch.uz

Saidov Murodjon

Urganch RANCH texnologiya universiteti

ORCID: 0009-0009-2427-9468

murodjon83.49@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini ta'minlanlash va hozirgi yillarda qanchalik muhim ekanligi haqida so'z boradi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining raqobat muhitini kuchaytirishdagi roli va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, imtiyoz va rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, tadbirkorlik subyektlari, investitsiya, bozor iqtisodiyoti.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ

PhD, доц. **Рузметов Даврон**

Ургенчский технологический университет RANCH

Саидов Муроджон

Ургенчский технологический университет RANCH

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике, а также их важность в последние годы. Также анализируется роль малого бизнеса в укреплении конкурентной среды и его потенциал в поддержке инновационной деятельности. В исследовании рассматривается эффективность государственной политики, стимулов и механизмов стимулирования, направленных на развитие малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, экономическая эффективность, хозяйствующие субъекты, инвестиции, рыночная экономика.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE ECONOMY

PhD, assoc. prof. **Ruzmetov Davron**
Urganch RANCH Technological University
Saidov Murodjon
Urganch RANCH Technological University

Abstract. *This article discusses the role and importance of small businesses and private entrepreneurship in the economy and their importance in recent years. It also analyzes the role of small businesses in strengthening the competitive environment and their potential to support innovative activities. The study examines the effectiveness of state policies, incentives and incentive mechanisms aimed at developing small businesses.*

Keywords: *small business, entrepreneurship, economic efficiency, business entities, investment, market economy.*

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innovation texnologiyalar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada oshirish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmoqda. Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantirmoqda.

Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlari natijasida tadbirkorlik sohasida ko'plab tizimli muammolar hal etildi, shu jumladan biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son qaroriga imzoladi. Bunga ko'ra:

Quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" muvofiq tasdiqlandi. "Yo'l xaritasi" da quyidagi 5 yo'nalish belgilandi:

- 1) kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish;
- 2) o'rta biznesni barqaror iqtisodiy o'sish garoviga aylantirish;
- 3) yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish;
- 4) yuqori daromadli korxonalarni ko'paytirish;
- 5) soddasoliq ma'muriyatchiligi va byurokratiyadan xoli qulay muhit yaratish.[1]

"Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki tashkil etilib va uning faoliyati ustuvor ravishda kichik biznes subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish va ularga kompleks xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirildi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining sanoat sohalarida “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qulladi.

“140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturida tadbirkorlik subyektlariga quyidagi imtiyozlar belgilangan:

1. “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturiga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada yillik 4 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yil muddatgacha kredit mablag‘lari ajratiladi;

2. Yangi turdagi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish va mavjud quvvatlarni kengaytirishga qaratilgan sanoat loyihalariga:

xorijiy valyutada yillik 5 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 10 yilgacha muddatga kredit mablag‘lari;

xorijiy valyutada yillik 4 foiz, milliy valyutada yillik 10 foiz stavkada 1 yilgacha muddatga aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kredit mablag‘lari ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmoni imzoladi. Bunga ko‘ra:

Kichik va o‘rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida:

2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgiladi:

Kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda — 34 foizga, eksportda — 34 foizga va aholi bandligini ta‘minlashda 75 — foizga yetkazish;

Kamida 600 nafar kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni “champion” tadbirkorlarga aylantirish;

2025-yil 1-maydan boshlab “o‘zini o‘zi band qilgan shaxs — yakka tartibdagi tadbirkor — kichik biznes — o‘rta biznes — yirik korxona” zanjiri asosida tadbirkorlik subyektlarining yiriklashuvini rag‘batlantirish bo‘yicha mexanizmlar joriy qilinishligi aytilgan.[2]

“O‘zini o‘zi band qilgan shaxs — yakka tartibdagi tadbirkor — kichik biznes — o‘rta biznes — yirik korxona” zanjiri asosida tadbirkorlik subyektlariga quyidagi imtiyozlar belgilangan:

1.O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda, davlat boji undirilmaydi;

2.O‘z faoliyatini tegishincha yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirma yoki kichik korxona toifasigacha yiriklashtirgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 50 million so‘mgacha, Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida — 150 million so‘mgacha garovsiz kreditlar beriladi;

3.O‘z faoliyatini tegishincha o‘rta yoki yirik biznes toifasigacha yiriklashtirgan tadbirkorlik subyektlariga — bir yil davomida qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) yetti kun muddatda tezlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

4.Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 120 trillion so‘m, shu jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida 22 trillion so‘m miqdoridagi kredit mablag‘lari ajratilishi.

5.Kambag‘al oilalar reyestrda turgan ishsiz fuqarolarni ish bilan ta‘minlagan kichik va o‘rta biznes subyektlariga ushbu fuqarolar uchun tashkil qilingan har bir ish o‘rniga qo‘shimcha ravishda 10 million so‘mdan, 10 va undan ko‘p bunday ish o‘rinlarini tashkil qilgan subyektlarga 100 million so‘mgacha 3 yilgacha muddatga yillik 14 foiz stavkada aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kredit ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi.

Adabiyotlar sharhi.

Kichik biznesni rivojlantirish borasida yaratilgan qulay shart-sharoitlar sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi, aholini ish bilan bandliligi va darom adlarining o'sishidagi roli yanada kuchayishi hamda YalM, eksport va tarmoqlar hamda sohalarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridagi ulushi ortib borishiga xizmat qiladi.

Respublikamizda bu mavzuda ilmiy izlanishlarini olib borayotgan olimlar kichik biznes subyektlarini rivojlantirish borasida bir qator o'zlarining mulohazalarini keltirib o'tganlar.

Jumladan, Azimov (2025) Osiyo xalqaro universiteti dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi "Yevropa ilmiy xalqaro konferensiyasi"da "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlantirish istiqbollari" maqolada kichik va o'rta biznesning O'zbekiston iqtisodiyotidagi roli, uning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Xalmatjanova (2025) Iqtisodiyot fanlari nomzodi, Jahon va mintaqqa iqtisodiyoti kafedrası dotsent "Innovations in Science and Technologies" ilmiy-elektron jurnalining 2025-yil 2-sonidagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy - ijtimoiy va huquqiy asoslari" nomli maqolasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tomondan taxlil qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatda istiqbolli bozor munosabatlarini rivojlantirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etishi, xojalik yuritishni optimal usullaridan foydalanish, ragbatlantiish, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish to'grisida so'z boradi.

Gulnara (2022) Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti professori "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni" nomli maqolasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan samaradorligini oshirishni takomillashtirishni taqozo etishini. Bu maqsadga erishish uchun mamlakatimiz rahbari tomonidan bir qancha farmon va qarorlarning ishlab chiqilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samaradorlini oshirishga albatta xizmat qilishini takidlab o'tgan.

Boltayev (2025) "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi Kredit qarzidorliklari bilan ishlash bo'limi bosh yuriskonsulti "MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE" jurnalining 2025-yil 10-fevraldagi sonidagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni" nomli maqolasida ishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi rivojlanayotgan zamonda qanchalik muhim ekanligi haqida so'z borishi va Kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solinishi tadbirkorlik faoliyatiga qaydarajada ahamiyatli ekanligiga oid birqancha xorij adabiyotlari ustida tahlillar keltirib o'tgan.

Ruzmetov (2025) Urganch RANCH Texnologiya universiteti prorektori i.f.f.d. PhD, Dotsent va Saidov (2025) Urganch Ranch texnologiya universiteti iqtisodiyot yonalishi magistranti "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalida 2025-yil 5-sonidagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlar ajratish orqali rivojlantirish" nomli maqolasida imtiyozli kreditlarning mazmuni, ularni ajratish mexanizmlari, shuningdek, ushbu moliyaviy choralar tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani o'rganiladi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi misolida imtiyozli kredit siyosatining amaliy jihatlari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishga erishishda kreditlashning o'rni tahlil qiladi.

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillari, jamiyatda istiqbolli bozor munosabatlarini rivojlantirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotini samaradorligini oshirish bo'yicha tahlil qilingan. Davlat tomonidan tadbirkorlikni keng tarmoqda rivojlantirish va ularga ko'maklashish,

davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilishi, ular duch kelishi mumkin bo'lgan haf hatarlarni kamaytirish va mamlakat iqtisodiyotida muhim rol tutganligi aniqlangan. Bir so'z bilan aytganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat iqtisodiyotida qay daraja muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda ahamiyatini aniqlash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot metodlari qo'llanildi. Xususan kontent-analiz yordamida me'yoriy-huquqiy bazalar, kreditlash mexanizmlari va siyosatlar bo'yicha asosiy mavzular aniqlandi; mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Bu sektor jamiyatda bandlikni ta'minlash, ichki bozorni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash kabi qator funksiyalarni bajaradi. Shu sababli, so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari – bu kam sonli ishchi kuchiga ega, cheklangan moliyaviy resurslar bilan ishlovchi, lekin moslashuvchan va innovatsion salohiyatga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektidir. Ko'pgina davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari korxonalari yalpi ichki mahsulotning katta qismini shakllantiradi.

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, aksariyat xalqlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, byudjet tushumlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, ko'plab rivojlangan davlatlar kichik biznes faoliyatini har tomon lama qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar va qo'llab-quvvatlash dasturlari kichik biznesning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa muayyan sharoitlar optimallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy sharoit deganda quyidagilar belgilanadi:

- tovarga bo'lgan extiyojga qarab talab va taklif;
- xaridor sotib olishi uchun tovarni sifatliyligi va xilma-xilligini mavjudligi;
- xaridor sotib olishi uchun moliyaviy darajasining yetarliyligi;
- ishchilarning maoshiga, ya'ni sotib olish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi malakaviy va arzon ishchi o'rinlari, ishchi kuchlarining ko'pligi yoki yetarli esmasligi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy taraflama taxlil qilish muxumdir. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish jamiyatda isteqbolli bozor munosabatlarini rivojlantirish, mulkdorlar jamiyatini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatida yangi, demokratik institutlarini barpo qilishning muhim shart-sharoitlaridandir. Bundan tashqari iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv xojalik yuritishni optimal usullaridan foydalanibgina qolmay, ragbatlantiradi, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni afzalliklari ko'pligi bilan ajralib turadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potentsial samarali vositadir. U fuqarolarga nafakat o'z ishchi kuchi, balki o'z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishiga imkon yaratib, o'rta sinf-jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikdan manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi.

Kichik biznes butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U iste'mol talabining o'zgarishlariga hammadan tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o'z faoliyati ixtisosini tez o'zgartira oladi. Shuningdek, iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini yaxshilaydigan tadbirkorlik bilan shug'ullanish, ish bilan band bo'lish va daromad olishga, ishi va shaxsiy hayotini yaxshilashga, o'z kobiliyati va iste'dodini namoyon qilishga imkon yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish amalga oshirayotgan islohotlarimizning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki, kichik biznes rivojlangan jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etuvchi muhim tarmoq bo'lib hisoblanadi. Uning faoliyati nafaqat kichik biznesning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari ichki bozorning iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi va aholiga turli xizmatlar ko'rsatilishi, eksport salohiyatining o'sishi, aholining ish bilan ta'minlash va uning real daromadlarini ko'paytirish masalalarining yechimi ham ana shu tarmoqning nechog'lik barqaror rivojlanishiga bog'liq (Ibragimov va Akbarov, 2017).

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari rivojlanishi mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha ma'lum bosqichlarni bosib o'tdi. Salkam 30 yil davomida kichik biznes sub'ektlari rivojlanishi borasida bir qator me'yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar yaratildi.

Kichik biznesning asosiy xususiyatlaridan biri mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan asosiy ko'rsatkichlarni qisqa muddat ichida ta'minlab berishi bilan ajralib turadi. Ya'ni kichik biznes mamlakat ichki bozorida taqchil bo'lgan tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim soha hisoblanadi. Shuningdek mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun ish bilan bandligini va daromadlarini oshirish hamda mulkdorlar sinfini shakllantirishda eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi. Umuman kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati:

- mamlakat yalpi milliy mahsulotining tarkib va miqdor jihatdan ko'payishini ta'minlaydi;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zamin yaratib beradi;
- aholining joriy daromadlari va jamg'armalarining oshishiga hamda farovonlik darajasini ko'tarilishiga zamin yaratadi;
- sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf etishi;
- davlat byudjet mablag'larining bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi
- tashqi iqtisodiy faoliyatda faol eshtirok etadi;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- yangi texnika-texnologiya, asbob-uskunalarini ishlab chiqarishga joriy etish va mehnat unumdorligini oshiradi.

Shuning uchun ham jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes milliy iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ham kichik korxonalarning soni ularda mavjud bo'lgan jami korxonalarning 70-80 foizini tashkil etmoqda

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin, O'zbekiston milliy iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish kambag'allikni qisqartirish, o'zini o'zi ish bilan

bandligini ta'minlash, mahallalarda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish kabilarga erishishni ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanishni maqsad qilgan davlatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

- ijobiy natija beruvchi va raqobatbardosh qo'llab-quvvatlash
- tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;
- iqtisodiy resurslardan natijaviy foydalanishni ta'minlash;
- iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalgam oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to'lovga qodir talab bilan uyg'unlashtirish;
- korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;
- eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;
- ekologik xavfsizlikni ta'minlashni oshirish.

Bunga kechiktirib bo'lmas vazifa, strategik ahamiyatga ega, muhim masala sifatida qaralishi lozim.

Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish suratlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmoqda. Shu sababli, kichik biznes subyektlari faoliyatini o'rganish va sohada mavjud muammolarni yechish yo'llarini tadbqiq qilish va ularning samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotdagi o'rni beqiyos bo'lib, u milliy iqtisodiy taraqqiyotning ustunlaridan biridir. O'zbekistonda bu sektor bo'yicha ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali ham ko'plab tizimli muammolar mavjud. Xalqaro tajriba, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va davlat ko'magini uyg'unlashtirgan holda bu sohani rivojlantirish orqali mamlakatda barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Azimov B.F (2025) *Osiyo xalqaro universiteti dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlantirish istiqbollari"* maqolasi, 81-85. <https://esiconf.org/index.php/TOSROF/article/view/4309>

Boltayev T.I. (2025) *"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni"* nomli maqolasi. "MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE" 57-60b. <https://econferences.ru/index.php/mmms/article/view/24458>

Farmon (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni*, 19.03.2025 yildagi PF-50-son. <https://lex.uz/docs/-7444738>

Gulnara Sh. (2022) *"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni"* nomli maqolasi. "Academic Research in Educational Sciences" Volume 3 | Issue 5 | , 610-613. <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikni-iqtisodiyotda-tutgan>

Ibragimov, N., & Akbarov, A. A. (2017). *The role of cryptography in information security. Научные разработки: евразийский реуон*, 107 <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/view/28179>

Qaror (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son*. <https://lex.uz/uz/docs/-6591947>

Ruzmetov D.I. va Saidov M.D (2025) *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlar ajratish orqali rivojlantirish, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"* ilmiy elektron jurnali 2025-yil 5-son, 125-130. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/>

Xalmatjanova G.D (2025) *"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy - ijtimoiy va huquqiy asoslari"* nomli maqolasi. "Innovations in Science and Technologies" ilmiy elektron jurnalining 2-soni, 228-235. <https://zenodo.org/records/15319318>